



**ANGLO-SAKSON HUQUQ TIZIMIDA SHARTNOMAVIY  
MAJBURIYATLARNING O'ZIGA XOS HUQUQIY JIHLTLARI HAMDA  
QO'LLANILISHIDAGI HUQUQIY MUAMMOLAR**

**Nurullayev Farrux Umidjonovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

E-mail: farruxdior1135@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7321896>

Abstrakt: Anglo-sakson huquq tizimi bo'yicha belgilangan shartnomaviy majburiyatlar bo'yicha qoidalarni to'laligicha romano-german huquq oilasiga mansub davlatning qonunchiligiga kiritib bo'lmaydi. Sud pretsidentini asos qilib keltiruvchi ingliz huquqida juda ko'p yillik sud amaliyoti mavjud. Hattoki o'z davlatida hali mavjud bo'lmagan pretsidentni boshqa anglo-sakson huquq tizimli davlatning pretsidentini asos qilib qaror chiqarishi mumkin. Shartnomaviy huquqda xalqaro shartnomaviy majburiyatlar eng yetakchi ahamiyat kasb etishi, ya'ni jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi munosabatlarning kelib chiqishi aynan mana shu asosga to'g'ri kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: pretsident huquqi, consideration, strict rule, substantial performance, severable contract, divisible contract.

Anglo-sakson huquq tizimida shartnomaviy majburiyatlarning vujudga kelishi bir necha asrlardan beri shartnomaning tuzilishi hamda uning ijrosi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Ma'lumki, romano-german huquq tizimi singari anglo-saksonda ham shartnomalar oferta yuborish hamda uni akseptlash orqali tuziladi. Shartnoma tuzilganidan so'ng taraflar o'rtasida muayyan majburiyatlar vujudga keladi. Anglo-sakson huquq tizimida "consideration" atamasi shartnoma bilan chambarchas bog'liqdir. Taraflar shartnoma tuzish vaqtida bir ikkinchisiga muayyan ish harakatni amalga oshirish majburiyatini olsa, ikkinchisi birinchisiga mazkur qilingan ish va harakat uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Mazkur tushuncha consideration atamasining mazmuni hisoblanadi. Anglo-sakson huquq tizimi shartnomani bir taraflama majburiyat olib tuzilishiga yo'l qo'ymaydi. Romano-germanida esa mazkur qoida mavjud emas.

Anglo-sakson huquq tizimida shartnomaviy majburiyatlarning ijro etish qoidalari 1795-yilda vujudga kelgan. Ushbu qoidalar ba'zi adabiyotlarda "qat'iy ijro" (strict rule), va to'liq ijro (entire performance rule) qoidalari deb yuritilgan. Bunda taraflar shartnomada belgilangan majburiyatlar to'liq ijro etilsa, shartnoma ijro etilgan hisoblanadi. Soddaroq qilib aytganda, majburiyatlar boshidan oxirigacha bajarilishi kerak. Ya'ni, agar shartnomalashuvchi taraf shartnomada belgilangan majburiyatni to'liq ijro etmasa, ikkinchi taraf o'z huquqlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilishi mumkin. Mazkur





qoidalarning vujudga kelishi 1795-yildagi Cutter v. Powell 101 ER 573 ishiga borib taqaladi. Bunda Katter ismli shaxs kema kapitanining ikkinchi yordamchisi bo'lib xizmat qilgan. Kema kapitani va Katter o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, Katter dengiz sayohati davomida va u tugaguniga qadar xizmat qilish majburiyatini olgan. Ammo xizmat davomida vafot etgan. Uning turmush o'rtog'i erining bajargan ishi va xizmatiga yarasha haqini berishni talab qilib sudga murojaat qilgan. Sud mazkur arizani ko'rib chiqib, uni qanoatlantirishsiz qoldirgan. Mazkur ish bo'yicha Sud shunday pretsident yaratadiki, Katter shartnomada xizmati butun dengiz sayohati davomida amalga oshirishi kerakligi, majburiyat to'liq amalga oshirilmaganligi sababli, unga to'lanishi lozim bo'lgan haq ham berilmasligini bildirgan.

Xuddi shunday ishlardan yana misol qilib keltiradigan bo'lsak, Re Moore and Landauer 1921 2 KB 519 ishi alohida o'ringa sazovor, bunda konserva mahsulotlarini sotuvchisi sotib oluvchi bilan har bir qadoq konserva qutisida 30 donadan banka bo'lishi kerakligiga kelishib olishgan. Ammo sotuvchi o'zi bilan 24 dona bankadan iborat bo'lgan konserva qutisini sotib oluvchiga yetkazib bergan. Sotib oluvchi esa sotuvchi bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish yuzasidan sudga da'vo ariza kiritgan. Sudning fikriga ko'ra, shartnomada kelishilgan 30 donadan iborat banka qutilari sotib oluvchiga yetkazib berilishi kerakligi va shartnomada belgilangan majburiyat to'liq ijro etilmaganligi tufayli shartnoma bekor qilingan.

Ammo hozirgi kunda zamonaviy statut qonuni "tovarlar oldi-sotdisi" to'g'risidagi 1979-yildagi qonun yuqorida keltirilgan holatlarda sudning bunday qaror qabul qilishini oldini oladi. Mazkur qonunning shakllanishiga ham bir nechta sud pretsidentlarni keltirib o'tish mumkin. Arcos v. Ronaasen and Son 1933 AC 470 ishida doskalar yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzilgan bo'lib, doskalarining o'lchovi uncha aniq ko'rsatilmagan. Va yetkazib beruvchi taraf doskalarni ehtimoliy to'g'ri keluvchi o'lchamda yetkazib bergan. Ammo sotib oluvchi taraf esa, mahsulotni qabul qilishni rad etgan. Uning fikricha, doskalar shartnomaga muvofiq olib kelinmagan. Sud uning arizasini qanoatlantirmagan. Bunda sotib oluvchi taraf shartnomada doskalarining o'lchamini aniq ko'rsatishi kerak edi.

Strict rulega istisno tariqasida bir nechta pretsidentlar mavjud bo'lib, 1779-yilda dastlabki pretsident vujudga kelgan. Boone v. Eyre 1779, 1 H. Bl 273 ishida afsonaviy sudya Mansfield birinchilardan bo'lib, substantial performance doktrinasini yaratgan. Mazkur ishda sotib oluvchi sotuvchidan Hindistonda joylashgan turar joy majmuasini xarid qilgan. O'sha vaqtlarda qora tanli shaxslar



qo'llar sifatida mazkur turar joyning chambarchas buyumi tariqasida qaralgan. Ammo shartnoma tuzish chog'ida, qullar qochib ketishadi. Shunda sotib oluvchi taraf strict rule qoidasiga ishonib, shartnomani bekor qilish yuzasidan sudga ariza kiritgan. Sud holatni o'rganib chiqar ekan, shartnoma bo'yicha sotib oluvchiga turar joy hamda boshqa buyumlar berilishi nazarda tutilgan. Ammo shartnomaning asosiy predmeti turar joyning o'zi hisoblanganligi uchun majburiyat sotuvchi tomonidan bajarilgan deb hisoblangan. Qullar esa dengizdan tomchi va u asosiy majburiyat bo'la olmaydi degan xulosaga kelishgan.

Ushbu xulosani qo'llab-quvvatlab sudya Atkin quyidagilarni ta'kidlagan: "Shartnomaning aniq shartlari hech qanday istisnolarsiz ijro etilishi kerak. Ammo ijrodagi xatolik biror bir yuqori qiymatga ega bo'lmasa, shartnoma bekor qilinmaydi. Shartnomaning bunday buzilishi sababchi bo'lgan taraf bajarilgan majburiyatiga yarasha haq olishi kerak. Bunday vaziyatlar shartnomaning bekor qilinishiga olib kelmasligi kerak."

Xuddi shunday ishlardan yana biri Dakin & Co Ltd v. Lee 1916 1 KB 566 ishi hisoblanadi. Taraflar o'rtasida uy-joyni ta'mirlash yuzasidan pudrat shartnomasi tuzilgan. Shartnoma bo'yicha ishning narxi 1500 funt tashkil etgan. Pudratchi ishni bajargan. Ammo buyurtmachi to'lashdan bosh tortgan. Unga ko'ra, ish kamchiliklar bilan bajarilgan. "Strict rule" qoidasi buzilgan deb hisoblagan. Pudratchi sudga da'vo ariza kiritgan. Sudda ma'lum bo'lishicha, ish darhaqiqat, muayyan kamchiliklar bilan amalga oshirilgan. Ammo bajarilmagan ish uchun haq 80 funtni tashkil qiladi. Mulk ortida qullar singari, bir yarim ming to'lanishi kerak bo'lgan shartnoma uchun ham 80 funtlik kamchilik asosiy shartnomaviy predmet hisoblanmaydi. Pudratchi bajarilgan ishlarning barchasini qaytarib berishni talab qilgan. Buyurtmachi da'voni to'liq rad etishni so'ragan. Sud adolatli va oqilona qaror qabul qilgan. Sudning qaroriga ko'ra, buyurtmachidan shartnomada kelishilgan summadan 80 funt chegirib tashlagan holda pul undirish to'g'risida hal qiluv qaror chiqargan.

Mazkur pretsidentdan so'ng sudlar ish harakatning to'liq bajarish majburiyati qachon vujudga keladi va qachon vujudga kelmasligi yuzasidan muayyan qoidalari yaratishgan. Ular quyidagilarga e'tibor berishadi:

- 1) Bajarilgan ishlar buyurtmachi uchun muayyan qiymatga egaligi;
- 2) Kamchiliklarni bartaraf etish mumkinligi. Agar kamchiliklar shartnomaning umumiy summasidan 10-20% foizgacha borsa, unda kamchiliklar ahamiyatsizdir;
- 3) Buyurtmachi ishlarni qabul qilganligi;



4) Bajarilgan ishlar natijasidan buyurtmachi foydalana olishi.

Mazkur ishga misol tariqasida, Bolton v. Mahadeva 1972 2 All ER 1322 ishini keltirib o'tish mumkin.

Romano-german huquq tizimiga mansub bo'lgan O'zbekiston shartnoma huquqida ham yuqorida keltirilgan ish bo'yicha chiqarilgan qaror ham deyarli bir xil yuridik yo'nalishga ega. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 636-moddasida belgilanganidek, pudratchi bajarilgan ishlari uchun buyurtmachidan haq olish huquqiga ega. "Bajarilgan ishlar va ularni bajarishda foydalanilgan materiallarni qaytarish mumkin emas. Biroq, buyurtmachi tomonidan qabul qilish dalolatnomasining imzolanishi u uchun ushbu ishlarning iste'mol qiymati va ulardan foydalanish istagidan dalolat beradi. Bunday holda, da'vo qanoatlantirilishi kerak va pudratchi tomonidan qilingan xarajatlar qoplanadi.

Stirct rule qoidasiga istisno tariqasida ikkinchi pretsident bu – ajraladigan shartnomalardir. Cutter v. Powell 1795 ishida shartnoma bir butunni tashkil qilar edi. Ya'ni kapitan yordamchisi o'z xizmat vazifasini butun dengiz sayohati davomida amalga oshirishi kerak edi. Va bu uchun kema kapitani unga haq to'lashi kerak.

Ammo ingliz huquqida kamdan-kam hollarda uchrab turuvchi pretsident mavjud. Odatda, taraflar shartnoma tuzishganida bir-biriga muayyan xatti-harakatlar yuzasidan majburiyat oladi. Ko'pincha mazkur shartnomalar ingliz huquqida yagona (bo'linmaydigan) shartnomalar va bo'linadigan shartnomalarga ajratiladi. Ingliz amaliyotida – severable contract yoki divisible contract deb ataladi. Oddiy tilda tushuntiriladigan bo'lsa, shartnomada bir taraf bir nechta majburiyatni o'z bo'yniga oladi. Masalan, bir shaxs televizor, telefon hamda koptogini sotish majburiyatini oldi, ikkinchi shaxs esa mazkur ashyolarning haqqini to'laydigan bo'ldi. Ammo birinchi shaxsning koptogi issiqda ko'p turganligi tufayli yorilib ketdi. Shu asnoda, faqat shartnomada kelishilgan televizor va telefonni sotdi, ammo koptogini foydalanishga yaroqsiz bo'lganligi tufayli sota olmadi. Bunda majburiyatlar bir butunni emas, balki uchta turli xil majburiyatlarni hosil qilgan.

Xulosa qilinadigan bo'lsa: agar bir nechta majburiyatni o'ziga olgan shaxs (qarzdor) majburiyatlardan birini bajarmagan bo'lsa va bu bajarilmagan majburiyat qolganlaridan ajraladigan bo'lsa, qolgan majburiyatlar bajarilishi kerak. Ajraladigan majburiyatni bajarmaslik boshqalarni bekor qilmaydi.

Mazkur qoida yuzasidan sud pretsidenti bo'lgan Roberts v. Havelock (1832) 3 B. & Ad. 404 ishida taraflar kemani ta'mirlash yuzasidan shartnoma tuziladi.



Shartnomada kema qirg'oqqa borib, tovarlarni qaytarib suzib olib kelib bera olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligi sharti belgilangan. Ammo xizmat ko'rsatuvchi tomon kemani oxirigacha tuzatmasdan shu paytacha qilingan ishlar uchun haqni talab qilgan. Ammo buyurtmachi strict rule qoidasidan kelib chiqib shartnomani to'liq bajargandan so'ng unga haq to'lashini ma'lum qilgan. Xizmatlarni bajaruvchi taraf sudga ariza kiritib, haqni talab qilgan. Sudning qaroriga ko'ra, mazkur shartnomada haq to'lash tartibi va kemanding ta'mirlanish davri aniq belgilanmaganligi uchun xizmat ko'rsatuvchi ishlarni to'liq bajarmasdan oldin, shu paytgacha bajargan ishiga yarasha haq olish huquqiga ega.

Uchinchi istiso esa kreditorning xatti-harakatiga borib taqaladi. Ya'ni kreditor qisman bajarilgan ishni qabul qilsa, unda qabul qilgan ishga nisbatan shartnomaviy majburiyatini bajarishi kerak. Lekin! Bu ikki majburiyat bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirdagina sodir bo'ladi:

1) kreditor ijroni qisman qabul qilish yoki qilmaslikni tanlash huquqiga ega bo'lgan;

2) kreditor ijroni shundayligicha qabul qilgan.

Agar kamida bitta majburiyat amalga oshirilmagan bo'lsa, u holda xuddi Sumpter v. Hedges [1898] 1 QB 6731 2 ishida bo'lgani kabi sud qaror qabul qilishi kerak. Mazkur ishda bir quruvchi ikkita uy va otxona qurish yuzasidan shartnomaviy majburiyatga kirishgan. Majburiyat bo'yicha yarim inshootni qurgan va bajarishni to'xtatgan. Uy-joy mulkdorida mazkur bajarilgan ishlarni qabul qilishi yoki qilmaslik yuzasidan biror bir imkoniyati mavjud bo'lmagan. Muldor qo'lidan kelgan qurilishni o'zi asta-sekin tugatgan. Va keyin quruvchi paydo bo'lib, u egasiga haqiqatda bajarilgan ish uchun adolatli haq undirish talabi bilan chiqqan.

To'rtinchi istisno bu – kreditorning xatti-harakati natijasida shartnomani qarzdor tomonidan ijro eta olmasligi. Ya'ni, pudrat shartnomasi bo'yicha buyurtmachining muayyan xatti-harakat natijasida pudratchi ishni oxirigacha amalga oshirolmay qolishi mumki, bunday paytda pudratchi bajarilgan ish uchun haqni talab qilish huquqini saqlab qoladi. Angliyada ham xuddi shunday qoida Blanche v Colburn (1831) 8 Bing 14 ishida ham qo'llanilgan. Qisqacha aytganda: nashriyot va muallif kitobni nashr qilish uchun shartnoma tuzadilar. Muallif kitobni yozgan. Ammo nashriyot shartnomadan voz kechadi. Kitobni yoqtirmagani uchun emas, balki muallifning kitobi chiqishi kerak bo'lgan seriya bo'yicha kitob ishlab chiqarish tugatilgan. Sud chiqargan qarordan nashriyot



norozi bo'lgan bo'lsada, muallifning bajarilgan ish uchun nashriyot haqi bo'yicha da'vosi qanoatlantirilgan.

Anglo-sakson huquq tizimida shartnomalarni ijro etish muddati bo'yicha muammolar qanday huquqiy tartibga solinganligi yuzasidan pretsidentlar talaygina. Bunda vaqtda shartnoma ijro muddati o'tkazib yuborilganda, umumiy qoida, ya'ni shartnomani muddati o'tib ketganligi uchun yetkazilgan zarar bo'yicha haq undirilishi mumkin. Bunda shartnomani bekor qilishni talab qila olmaydi. Mazkur qoida United Scientific Holdings Ltd v. Burnley Borough Council (1978) 2 All ER 62 ishi bo'yicha o'z aksini topgan. Ammo shartnomani bekor qilinishi ham mumkin. Bunday bekor qilish istisno tariqasida ikkita holatda amalga oshirilishi mumkin:

1. Muddatga bog'liq bo'lgan shartnomalar: ikkinchi tomon uchun ijro muddati prinsipial jihatdan muhimdir.
2. Sud ishida keltirilgan faktlardan ma'lum bo'luvchi shartnomalar, xususan vaqt muhim ahamiyatga ega holatlar. Masalan, tez buziladigan tovarlar yetkazib berish shartnomasi.

Anglo-sakson huquq tizimida shartnomalarning kim tomonidan ijro etilishi romano-german huquq oilasi, xususan Rossiya fuqarolik kodeksi 313-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi 241-moddasida shartnomada uchinchi tarafni jalb etish yuzasidan aniq taqiq belgilanmagan bo'lsa, bunday hollarda uchinchi shaxs majburiyatni qarzdorning o'rniga amalga oshirishi mumkin. Bunday hollarda qarzdor uchinchi shaxsning bajargan majburiyatlari yuzasidan kreditor oldida javobgar bo'ladi.

Masalan, bir shaxs ikkinchi shaxsga o'z avtomashasini yuvib berish evaziga yuz ming so'm berishni taklif qiladi. Ikkinchi taraf taklifni akseptlaydi. Ikkinchi taraf avtomashina yuvib ko'rmagan uchinchi shaxsni mazkur ishni ellik ming so'm evaziga bajarib berishi bo'yicha kelishib olishadi. Uchinchi shaxs mashinani yuvish jarayonida orqa yon oynalarini sindirib qo'yadi. Bunday holatda singan oyna haqqini kim to'lab beradi. Albataa birinchi shaxs ikkinchi shaxsdan oyna uchun haqni talab qilish huquqiga ega. Uchinchi shaxs esa ikkinchi shaxs oldida javobgar bo'ladi. Bunday ishlar bo'yicha sud pretsidenti sifatida Davies v. Collins 1945 1AU ER 247 ishi va Stewart v. Reavell's Garage 1952 1 All ER 1191 ishlarini ingliz shartnoma huquqida misol sifatida keltirish mumkin.

Shartnoma majburiyatlarini amalga oshirolmaslik yuzasidan anglo-sakson huquq tizimida ikki asrdan beri amal qilgan yagona qoida: "Yer tagidan bo'lsa ham, shartnomani amalga oshirishga majbursan. Hech qanday to'siqlar yo'q,



boshqa holatlar bo'lishi mumkin emas". Ushbu qoida *Paradine v. Jane* [1647] EWHC KBJ5 ishida vujudga kelgan.

Bir shaxs fermer xo'jaligi yerini ijaraga olish yuzasidan shartnoma tuzgan. Ammo to'satdan urush boshlanib, uning ijaraga olingan yerini dushman qo'shinlari egallab oladi. Fermer mazkur yerga borganda, dushman qo'shini uni o'ldirishi yoki asrga olishi turgan gap. Shu tariqa uch yil davomida mazkur yerdan foydalana olmagan fermer ijaraning haqqini ham bergisi kelmagan. Sud chiqargan qarorga ko'ra, shartnoma bo'yicha ijara haqqini to'lash majburiyatini olganmi, demak, majburiyatni har qanday holda ham bajarishi kerak. Mazkur qoidani oliy sudya *Blekburna* o'zgartirgan holda, shartnoma majburiyatini bajarolmaslik holatini kiritgan.

Mazkur sud pretsidentida da'vogar javobgarga tegishli bo'lgan teatrni ijaraga olgan va ijara haqqi esa 100 funtni tashkil etgan. Da'vogarning maqsadi mazkur teatrda konsert berib momaygina daromad olish bo'lgan. Ammo javobgarning teatri yonib ketadi. Shuningdek, da'vogar teatrda namoyish o'tkazish uchun qilgan reklama xarajatlarini talab qilib sudga da'vo kiritgan. Asos sifatida *Paradine v. Jane* ishini keltirilgan. Sud esa teatrning yonib ketganligini oldindan ko'rib bo'lmas hodisa ekanligini bunday paytda shartnoma bekor qilinishi kerakligini qaror qilgan.

Odamlarning munosabatlarini va bunday shartnomalar bo'yicha o'rnatilgan amaliyotni hisobga olgan holda, bunday shart shartnomada bo'lishi kerak va muhim shart hisoblanadi. Demak, fuqarolik huquqida (civil law) obligatio de certo corpore tipidagi har bir majburiyatda shunday shart mavjud – ya'ni shaxsiy bajarilishini talab qiladigan majburiyatlar. Bunday qoida dastlab Rim huquqida belgilangan. "Agar ular mulkni (masalan, qulni) ma'lum bir vaqtda topshirishga va'da berishsa va u belgilangan muddatdan oldin vafot etgan bo'lsa, mazkur huquqiy munosabat va'da qilingan majburiyat bilan bog'liq emas" ("Yustinianning dijestlari", kitob. 45. sarlavha 1. 33-bet). Bu tamoyil 23-bandda to'liqroq belgilangan: "Agar siz menga ma'lum bir qul qarzdor bo'lsangiz-u, bu qul o'lgan bo'lsa, uning o'limiga siz sababchi bo'lmasangiz va o'z aybingiz bilan shunday qilmagan bo'lsangizgina, majburiyatdan ozod etilasiz. Agar siz qulni o'ldirgan bo'lsangiz yoki mening eslatmamdan keyin qulni ekstraditsiya qilmagan bo'lsangiz, ayb sizniki bo'ladi" ("Yustinian Digests", 45-kitob, 1 sarlavha. 23-bet).



**References:**

1. Оробинский В. В. Английское контрактное право. Просто о сложном. – 2016. С. 275.;
2. Berlingher Remus Daniel Conflict Rules on Contractual Obligations in Romanian Private International Law International Review of Management and Business Research, Vol. 3 Issue.1. March 2014.;
3. Канашевский В.А. Международные сделки: правовое регулирование. М.: Международные отношения, 2016.;
4. Berlingher Remus Daniel Conflict Rules on Contractual Obligations in Romanian Private International Law International Review of Management and Business Research, Vol. 3 Issue.1. March 2014.

